

Modern education and development
YOSHLAR ORASIDA IJTIMOIY-MADANIY VA MA'NAVIY
MUHITNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

RASULOV KOMIL

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Ijtimoiy-gumanitar va pedagogika" kafedrasи o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yoshlar orasida ijtimoiy-madaniy va ma'naviy muhitni rivojlantirishning dolzarbliji va ahamiyati haqida so'z boradi va ma'lumotlar keltirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Davlat, jamiyat, milliy ma'naviyat, ma'rifat, globallashuv, demokratiya, axloq-odob, milliy ong va tafakkur.

Abstract: This article talks about the relevance and importance of developing the socio-cultural and spiritual environment among young people and provides information.

Key words: State, society, national spirituality, enlightenment, globalization, democracy, ethics, national consciousness and thinking.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi, o'sha davlatda yoshlar ta'lim tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liqdir. Shu ma'noda O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'naliishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar har qanday jamiyatning buguni va ertasi. Ular tom ma'noda davlatning eng katta boyligi va bebahо xazinasidir. Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 25 foizini yoshlar tashkil etadi. Ya'ni 30 yoshgacha bo'lgan 2 milliardga yaqin yoshlarning aksariyati rivojlanayotgan davlatlar va Markaziy Osiyo mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich so'nggi o'n yilda yanada ortayotgani va bu jarayon asosan bizning mintaqamizda yuz berayotgani ko'rishishimiz mumkin. Xususan, bugungi kunda

Modern education and development

yurtimiz aholining 60 foizidan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Shunday ekan, yurtimizdagi barcha yoshlarni yuksak bilimli, salohiyatli, har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda, albatta, kitobxonlik mdaniyatining o‘rnini beqiyosdir. Sababi, barcha buyuk insonlar, buyuk olim-u mutafakkirlarimizning ham birinchi qilgan ishlari bu kitob o‘qib, o‘z ustilarida ishlash bo‘lgan. Hozirgi globallashuv jarayonlarida ham o‘sayotgan har bir yoshlarimiz o‘zlarini bilim va ma’naviy ong jihatidan mustahkamlashi zarur. Mamlakatimizda ma’naviy, ma’rifiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda islohotlarni amalga oshirish bugungi globallashuv sharoitida barqaror davlat va jamiyat qurishning asosiy shartlaridan bo‘lib qoldi. Yoshlarni ma’naviy barkamol va ma’rifatli shaxs sifatida tarbiyalash, ularning sog‘lom ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish davlat va jamiyatning ustivor vazifalaridan biriga aylandi.

Yoshlar, milliy urf-odatlar va an’analarning boshqaruvi jarayonida milliy tarix, adabiyot, san’at, madaniyat va boshqa milliy g‘oyalar bilan tanishishlari orqali o‘z milliy g‘oyalarini o‘zlashtiradilar. Bu, ularga millatga oid odatlarni qadrlash, milliy birlashuvning tashkil etishida hamda milliy qadriyatlarni saqlashda katta yordam beradi. Tafakkur ham yoshlar uchun muhimdir. Bu, yoshlarning o‘zlarini tahlil qilish, dunyoqarashi va o‘z fikrlarini rivojlantirish, yangiliklardan foydalanish va insoniy g‘oyalarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yoshlar, milliy urf-odatlar va an’analarning boshqaruvi jarayonida qadriyatli, innovatsion, ijodkorlik, ijtimoiy va siyosiy g‘oyalar bilan yo‘ldoshlik qilishlari orqali yangi yondoshlar va liderlar bo‘lishlari shart.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongut-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratib, ko‘plab qaror va farmonlarni qabul qilib, hayotga tadbiq emoqda.

Modern education and development

Jamiyatda ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish buyuk mutafakkir ajdodlarimizning asarlari, tarixiy manbalarini xalqimizning milliy ongiga singdirish muhim o‘rin tutadi. Bu borada “Avesto” asari, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abulqosim Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarimizning ma’naviy-axloqiy ta’limotlari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi va yuqorida nomlari qayd etilgan barcha olimlarimizning yozgan asar va kitoblari mamlakatimizdagi har bir kutubxonada bo‘lishi lozim. Chunki mutafakkirlarimiz asarlarida inson va uning ma’naviy olami jamiyat hayotining ustuvor amallari sifatida qaraladi.

Buyuk qomusiy olim, o‘z davrining yetuk va mukkammal bilimdoni, barcha turkiy adabiyotida o‘zining “Qutadg‘u bilig” (Baxt-saodatga eltuvchi bilim) asarining muallifi Yusuf Xos Hojib ham ushbu asarida ma’naviyat, axloq va xulq-atvorga oid shunday bir fikrni ta’kidlaydi, “Xulq go‘zal bo‘lsa, barcha xalq sevadi, Xulqi to‘g‘ri bo‘lgan kishi to‘rga chiqadi”. Yani ushbu misradagi yaxshi xulq to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, avvalo, insonning ziynati uning tashqi ko‘rinishida yoki boyligida emas balki uning chiroyli odobidadir. Odob insonning xulq atvori go‘zal muomalasi halolligi o‘zini toza pokiza tutishi hamda insoniyligidadir. Ma’lumki, hamma zamonlarda yaxshi xulqli, olivjanob, shirin so‘z, go‘zal fazilatli insonlar jamiyatning ko‘rki, odamlarning a’losi bo‘lib kelgan. Mol-dunyolari, boyliklari ko‘pligi yoki nasablarining ulug‘ligi insonning darajasini belgilamaydi. Ammo ilm, ma’rifat va yaxshi xulq-atvor doimo yonmaydon bo‘lishi lozim. Chunki kishida shu xislatlarning biri bo‘lib, boshqasi mujassam bo‘lmasa, u komil inson bo‘la olmaydi. Har tomonlama komil bo‘lмаган insonda nuqsonlar bo‘ladi, adashish, xatolar, boshqalarga tobelik bo‘lishi, mustaqil dunyo qarash va fikrlashi yo‘q bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi go‘zal xulqning, yomon xulqi ham bor. Yomon xulq— ma’naviyat rivojlanishiga to‘sinqilik qiladigan, kishilarining axloqiy ideallariga, ular e’zozlaydigan qadriyatlarga zid keladigan, odamlar orasidagi munosabatlarda salbiy hodisa tarzida namoyon bo‘ladigan, insoniylik talablariga mos kelmaydigan xususiyatlar

Modern education and development

va xatti-harakatlarni o‘zida mujassamlashtirgan tushunchalar yig‘indisi hisoblanadi. Odatda, yomon xulq kishiga odat bo‘lib qolgan, takrorlanib turadigan salbiy harakatlar, ya’ni odat, qiliqlarda namoyon bo‘ladi. Yomon xulqli odam deganda o‘zining fe’l-atvori, qilgan ishlari bilan atrofdagilarga zarar yetkazuvchi axloqan nopol kishilarni tushunamiz. Har qachon va har davrda yomon xulqli, yomon amalliy insonlar xalq orasida isnotda qolganlar. Bunday turdagি insonlar xalqdan o‘z-o‘zidan ajralib qoladi. Shu boisdan har qanday vaziyatdan qat’iy nazar yomon xulqli va amalli insonlar yonini olish, ular sabab yaxshilar bilan nizoga borish xato ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan. Nafaqat Yusuf Xos Hojib balki qator alloma va shoirlarimiz ham yomonlikning illat ekanligi, uning inson va jamiyat hayotiga salbiy ta’sirini, millat kelajagining vayron bo‘lishi haqida o‘zlarining asarlarida yozib qoldirishgan.

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an’ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o’rin tutib, ular kishilar turmush tarzining o’ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniyat, san’at, fan va ta’lim sohalarini rivojlantirish, uni yangi davr, yangicha dunyoqarash nuqtai nazaridan taraqqiy toptirish, bu sohalarda ham islohatlarni amalga oshirish davlatimiz va jamiyatimiz istiqbolining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo‘lib, bunday zamonaviy tushunchalar, yangi uslublar, kashfiyotlar nechog‘li ahamiyatli bo’lsa, ajdodlarimizning bu sohalardagi ma’naviy-ijodiy merosining ahamiyati ham undan kam emas.

Xalqning madaniy va ma’naviy qadriyatları, moddiy va nomoddiy merosi ming yillar mobaynida qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib, milliy an’analar zamirida xalqimizning boy va qadimiy tarixi, orzu-istiklari, buyuk istiqbol manzaralari mujassamlashgandir.

Jamiyatdagi ma’naviyat va madaniyat masalalarining tizimli yo’lga qo’yilishi, o’sha jamiyat tarixi, taraqqiyot va rivojlanishining kafolatidir. O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz

Modern education and development

xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo’lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo’lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi”.

“Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o’ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo’lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko’hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo’lib xizmat qiladi

Ko’rib turganimizdek, hozirgi qaytarilmas jarayonlarda zamon va tarix bir joyda turmaydi, ammo biz ayni vaqtda yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi bilan yaqindan shug’ullanmasak, ular ongiga milliy madaniyatimiz va ma’naviy qadriyatlarimizning xulq-atvorini singdirmasak, sog’lom turmush tarzini ommalashtirmasak, jamiyat tanazzuliga aylanadi. Bu muammoni hal qilish uchun jamiyatdagi barcha shaxslar Prezidentimiz hamda hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qaror farmonlar va qonunlarni ya’ni 2016-yil 14-sentabr kuni imzolangan O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-son “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 5-iyuldagagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to‘g‘risida” Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 28-iyuldagagi PQ-3160-son “Ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to‘g‘risida” Qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

Modern education and development

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentabrdagi 736-son "Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 310-son "**2022-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida**" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 558-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amaliyatga tadbiq etish hamda bajarish samaradorligini oshirsak, kelajak avlod, hech qachon adashmaydi, balki milliy qadriyatlarimiz hamda madaniyatimizni asrab avaylashga o'z hissasini qo'shami.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B 298.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 30-31.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyunda "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 369-sonli qarori.
4. 2018-yil 28-noyabr O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori.

Modern education and development

5. “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami. “Tafakkur-Bo‘stoni” nashriyoti. Toshkent-2019.
6. Azamat Haydarov. “O‘zbekiston jamiyati siyosiy madaniyatida milliy ma’naviy qadryatlarning o‘rni”. Siyosiy fanlar nomzodini olish uchun yozilgan disertatsiya 2004-yil.
7. Qadirov Eshmuhammadning “Yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish”. Avtoreferat. 2019-yil.
8. V.Alimasov. Madaniyat falsafasi. Toshkent-2018. 34-37-betlar.
9. Q.Nishonboyeva. “Madaniyatning millatlararo va umumbashariy muammolari”./O‘quv qo‘llanma./Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”. 2020, 192 b.
10. S.To‘ychiyeva. Qadriyatshunoslik. – T. “Fan ziyosi” nashriyoti. 2021-yil, 125-bet.
11. B.Saparov. Milliy g‘oya tizimida milliy o‘zlikni anglashning tuzilmaviy-funksional tahlili mavzusidagi disertatsiya aftoreferatidan. Toshkent-2019.
12. O.Bazarov. Talaba-yoshlar ma’naviy-axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari mavzusidagi disertatsiya aftoreferatidan. Toshkent-2019.
13. O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy, onlayn konferensiya materiallar to‘plami. Toshkent-2020-yil. 259-b.
14. Y.X.Hojib. “Qutadg‘u bilig”. Toshkent. Cho‘lpon nashriyoti. 2007-yil, 85-98-betlar.